

To'liq shartnoma qiymati: *"Interest"* % (*"InterestInWords"*)

**KREDIT KARTASI BO'YICHA
KREDIT LIMITINI
TAQDIM ETISH SHARTNOMASI
№ "LoanId"**

Toshkent sh.

"Date" y.

"**TBC Bank**" **ATB** nomidan Ustav asosida ish yurituvchi "DisbursementResponsiblePerson" (bundan keyin matnda "Bank" deb yuritiladi) bir tomondan, va O'zbekiston Respublikasi fuqarosi "FullName" (JSHSHIR: "PINFL", tug'ilgan sana: "birthdate", "IDSeriesAndNumber", "Address") (bundan keyin matnda "Qarz oluvchi" yoki "Mijoz" deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar" deb ataluvchilar, kredit karta bo'yicha kredit limitini taqdim etish to'g'risida ushbu shartnomani (bundan keyin matnda "Shartnoma" deb yuritiladi) quyidagicha tuzdilar:

1. ATAMALAR VA TALQINLAR

- 1.1. **Kredit karta** - Bank tomonidan chiqarilgan, unga birlashtirilgan yagona bank hisobvarag'iga ega bo'lgan, Qarz oluvchi tomonidan Bank taqdim etgan Kreditlash limiti doirasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan virtual yoki jismoniy bank kartasi (bundan keyin matnda – "Karta").
- 1.2. **Limit** - Bank tomonidan belgilanadigan va qayta ko'rib chiqiladigan eng yuqori summa bo'lib, u doirasida Qarz oluvchiga Kartadan foydalangan holda xarajat operatsiyalarini amalga oshirish uchun qayta tiklanadigan kredit liniyasi mablag'laridan (bir vaqtning o'zida yoki qismlarga bo'lib) foydalanish imkoniyati beriladi. Kreditlash limiti Qarz oluvchining to'lovga qobiliyatini (skoring) muntazam baholash asosida hisoblanadi (bundan keyin matnda – "Limit").
- 1.3. **Hisobot davri** - Ko'chirma sanasidan (shu jumladan) keyingi Ko'chirma sanasidan oldingi kungacha bo'lgan vaqt oralig'i. Karta bo'yicha birinchi hisobot davri karta bo'yicha birinchi operatsiya sanasidan boshlab Ko'chirma sanasigacha hisoblanadi.

- 1.4. **Foizsiz davr qarzi** - Mijozning Hisobot davri oxiridagi Ko'chirma bo'yicha qarzi bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: Limit bo'yicha asosiy qarz hamda Tariflar va Shartnomada ko'zda tutilgan to'lovlar, komissiya va Ko'chirma sanasida hisoblangan foizlar.
- 1.5. **Ko'chirma** - Ilovada Mijozga taqdim etiladigan Karta bo'yicha ko'chirma bo'lib, unda har bir hisobot davri uchun asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo'yicha minimal to'lov summasi va muddati, shuningdek Mijoz tanishib chiqishi shart bo'lgan boshqa ma'lumotlar mavjud.
- 1.6. **POS-operatsiyalar (Xaridlar)** - jismoniy POS yoki virtual ePOS terminallari orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar, mobil ilovalar orqali tovarlar va/yoki xizmatlar uchun to'lovlar hamda Karta tariflariga muvofiq boshqa operatsiyalar.
- 1.7. **Cash-operatsiyalar (Naqd pul yechish)** - bankomatlar orqali naqd pul yechish va/yoki karta tariflariga muvofiq naqd pul yechishga tenglashtirilgan boshqa operatsiyalar.
- 1.8. **"Ish kunlari"** Shartnoma matnida Bankning operatsion ish kunlarini anglatadi.
- 1.9. **Ilova** - "TBC UZ" mobil ilovasi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

- 2.1. Shartnoma shartlariga ko'ra, Bank Qarz oluvchining skoring tizimi tomonidan tasdiqlangan kredit arizasi asosida Kredit kartasini chiqaradi va Karta bo'yicha Kredit liniyasi limitini taqdim etadi. Qarz oluvchi esa foydalanilgan summani to'liq hajmda Bankka qaytarish va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Limitdan foydalanganlik uchun foizlarni to'lash majburiyatini oladi.
 - 2.1.1. Kredit kartasining dastlabki chiqarilishi virtual karta ko'rinishida amalga oshiriladi. Jismoniy karta "TBC Bank" ATB tariflarida belgilangan tartib va shartlarga ko'ra Qarz oluvchining alohida so'rovi asosida chiqariladi. "TBC Bank" ATB tariflarida jismoniy kartani chiqarish uchun to'lov undirish shartlari ko'rsatilmagan bo'lsa, bunday karta bepul chiqariladi.
 - 2.1.2. Virtual va jismoniy kartalar yagona rekvizitlarga ega bo'lib, Qarz oluvchiga qulaylik yaratish maqsadida bitta karta hisobvarag'i doirasida foydalaniladi. Jismoniy karta chiqarilganda, u barcha rekvizitlarni saqlab qolgan holda virtual kartaning o'rnini egallaydi.
- 2.2. Karta bo'yicha operatsiyalar tariflari "TBC Bank" ATBning kredit karta tariflarida (matnda - Tariflar) belgilanadi. Ular Bankning rasmiy veb-saytining "Hujjatlar" bo'limida joylashgan - <https://tbcbank.uz/uz/documents>.
- 2.3. Ushbu Shartnoma Qarz oluvchi tomonidan kredit arizasini topshirish jarayonida Ilovadagi Shartnoma qabul qilingandan so'ng tuzilgan hisoblanadi.

3. KREDIT LIMITINING UMUMIY SHARTLARI

- 3.1. **Amaldagi limit miqdori:** "maxlimit" ("maxlimit_in_words") soʻm.
- 3.2. **Limit muddati:** Shartnoma shartlariga muvofiq keyingi qayta koʻrib chiqishgacha, ammo "Date" sanasidan kechiktirmasdan.
- 3.3. **Limit valyutasi:** milliy valyuta - soʻm.
- 3.4. **Foiz stavkalari:**
 - 3.4.1. **POS-operatsiyalar (Xaridlar):** "pos_rate"%;
 - 3.4.2. **Naqd pul olish operatsiyalari:** "cash_rate"%;
 - 3.4.3. **Kechiktirilgan toʻlov uchun oshirilgan foiz: Tariflarga muvofiq.**
- 3.5. **Minimal toʻlov summasi:** Toʻlov sanasida Qarz oluvchi tomonidan kiritilishi shart boʻlgan majburiy toʻlov. U asosiy qarzning "minimal_payment" foizi miqdorida asosiy qarzning bir qismini va/yoki hisoblangan foizlarni (va boshqa mavjud toʻlovlarni) hamda hisoblangan foizlarni (Tarifga muvofiq) oʻz ichiga oladi.
- 3.6. **Koʻchirma sanasi:** Foizsiz davr qarzi va Minimal toʻlov summasi hisoblanadigan sana. Bank Qarz oluvchini Karta boʻyicha koʻchirma sanasi haqida Ilova yoki SMS-xabar orqali xabardor qiladi.
- 3.7. **Toʻlov sanasi:** Koʻchirma sanasidan keyingi 24 (yigirma toʻrtinchi) kun. Agar toʻlov sanasi dam olish kuniga toʻgʻri kelsa, bank tomonidan kliring fayllarining kechikib olinishi (haqiqiy toʻlov oʻtkazilishi) natijasida foizlar yoki komissiya hisoblanishining oldini olish uchun Mijoz toʻlovni 2-3 kun oldin amalga oshirishi lozim.
- 3.8. **Foizsiz (imtiyozli) davr:** oxirgi Hisobot davri doirasida bank kredit mablagʻlaridan karta orqali xaridlarni amalga oshirish uchun foydalanganlik uchun foizlar undirilmaydigan davr. Bu imtiyoz foizsiz davr qarzi summasi toʻlov sanasigacha toʻliq toʻlangandagina amal qiladi.
- 3.9. Bank Limit miqdorini kamaytirish yoki koʻpaytirish yoʻnalishida qayta koʻrib chiqish huquqiga ega. Qayta koʻrib chiqish Mijozning kreditga layoqatligi, toʻlovga qobiliyati va toʻlov intizomini muntazam baholash natijalari, shuningdek uning alohida murojaatlari asosida amalga oshiriladi.
 - 3.9.1. Baholash natijalari qoniqarsiz boʻlgan taqdirda, Bank "TBC Bank" ATBning bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish boʻyicha Bosh shartlarida (bundan keyin matnda - Bosh shartlar) koʻzda tutilgan aloqa kanallari orqali Mijozni xabardor qilgan holda, Limit miqdorini bir tomonlama kamaytirishga haqli (jumladan, Ilova, SMS-xabar, Push-bildirishnoma yoki xat orqali). <https://tbcbank.uz/uz/documents> Oʻzgartirilgan Limitga rozi boʻlmagan taqdirda, Mijoz Karta va Limitdan foydalanishni toʻxtatishi va Shartnomani bekor qilish uchun Bankka murojaat qilishi shart. Limitdan foydalanishni davom ettirish yoki Karta boʻyicha operatsiyalarni amalga

oshirish orqali Mijoz yangi Limitga rozilik bildirgan hisoblanadi. Qayta ko'rib chiqilgan Limit Bank tegishli bildirishnomani yuborishi bilan darhol kuchga kiradi.

- 3.9.2. Limit miqdorini oshirish yo'nalishida qayta ko'rib chiqish faqat Mijozning Ilova funksiyasi orqali taqdim etilgan tegishli arizasi asosida amalga oshirilishi mumkin.
- 3.10. Ilovada tegishli funktsionallik mavjud bo'lsa, Mijoz Karta bo'yicha Limit miqdorini qayta ko'rib chiqishni so'rash huquqiga ega. Yangi Limitni taqdim etish to'g'risidagi yakuniy qaror Bank tomonidan 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida o'z ixtiyoriga ko'ra, ichki mezonlar, jumladan xavflarni baholash va tartibga solish talablarini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Bank mijozga qabul qilingan qaror asoslarini oshkor etishga majbur emas. Bank tomonidan ma'qullangan taqdirda, qayta ko'rib chiqilgan Limit Bank tegishli qaror qabul qilgan kundan keyingi kun kuchga kiradi.
- 3.11. Bank o'z xohishiga ko'ra, kredit va/yoki operatsion xatarlarni baholashdan kelib chiqib, shuningdek Mijoz tomonidan to'lov intizomi buzilgan taqdirda yoki Bank nazarda tutgan boshqa hollarda, Limitdan foydalanishni qisman yoki to'liq vaqtincha cheklash huquqiga ega. Bunda tasdiqlangan Limit miqdori o'zgarmaydi. Vaqtinchalik cheklov o'rnatilgan taqdirda, tasdiqlangan Limitning mavjud qismi miqdori Ilova interfeysida ko'rsatiladi. Cheklov tegishli holatlar bartaraf etilgunga qadar amal qiladi va Bank tomonidan bekor qilinishi yoki yumshatilishi mumkin.

4. KREDIT LINIYASI VA KARTA LIMITINI RASMIYLASHTIRISH

- 4.1. Limitni olish uchun Qarz oluvchi ilovada kredit arizasini to'ldiradi. Kredit arizasini rasmiylashtirish orqali Mijoz Bankning rasmiy veb-saytida (<https://tbcbank.uz/uz/>) joylashtirilgan kredit olish uchun minimal talablar bilan tanishganligini tasdiqlaydi.
- 4.2. Qarz oluvchining skoringi o'tkazilib, ijobiy natija olingach, Bank tasdiqlangan birlamchi limit miqdorida individual kreditlash shartlari bilan Shartnomani taqdim etadi. Qarz oluvchi Shartnoma bilan tanishib chiqishi va interfeysdagi ko'rsatmalarga muvofiq Ilovada Shartnomani qabul qilishi (akseptlashi) lozim.
- 4.3. Shartnoma akseptlangach, Bank Qarz oluvchi nomiga virtual karta chiqaradi. Virtual karta Qarz oluvchiga beriladi va darhol faollashtiriladi, ilovadagi texnik nosozliklar holatlari bundan mustasno.
 - 4.3.1. Virtual karta faollashtirilgach, Limit mablag'lari Bank tomonidan 48 (qirq sakkiz) soatgacha bo'lgan muddatga bloklanadi. Limitdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish uchun Qarz oluvchi ko'rsatilgan muddat ichida firibgarlar ta'siriga uchramaganligini tasdiqlash maqsadida tekshiruv va xavfsizlik tartib-qoidalaridan o'tishi shart. Tekshiruv Bank va Qarz oluvchi o'rtasidagi telefon aloqasi orqali amalga oshiriladi. Bunda Qarz oluvchi

Bank vakillarining aniqlashtiruvchi savollariga javob berishi, shuningdek hech qanday ta'sir bo'lmaganligini tasdiqlashi kerak.

- 4.3.2. Agar Qarz oluvchi virtual karta faollashtirilgan paytdan boshlab 48 (qirq sakkiz) soat ichida mazkur tekshiruvdan o'tmasa, Bank Qarz oluvchini xabardor qilgan holda Limitni bloklash va Shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.
- 4.3.3. Tekshiruv va xavfsizlik talabi faqat ilgari kredit kartasiga ega bo'lmagan yangi mijozlarga nisbatan qo'llaniladi. Karta qayta yoki takroran chiqarilganda mazkur tekshiruv o'tkazilmaydi.
- 4.4. Jismoniy Karta Qarz oluvchining alohida arizasiga ko'ra chiqariladi. Jismoniy karta 3 ish kunidan 10 ish kunigacha bo'lgan muddatda tayyorlanadi. Kartani yetkazib berish aniq muddati Qarz oluvchiga Bankning aloqa kanallari orqali ma'lum qilinadi va yetkazib berish manziliga qarab farqlanishi mumkin.
 - 4.4.1. Jismoniy Karta qabul qilingandan so'ng, Qarz oluvchi uni faollashtirishi lozim. Kartani faollashtirish Ilova orqali, ilova interfeysida ko'rsatilgan yo'riqnomalar asosida Kartaning PIN-kodidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Jismoniy karta faollashtirilgach, Limitdan foydalanish bir ish kunidan kechiktirmay mumkin bo'ladi.
- 4.5. Bank kartalaridan foydalanishning umumiy shartlari Bosh shartlar bilan tartibga solinadi.
- 4.6. Mijoz ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq yangi Karta chiqarilganda o'zining amaldagi Kartasi yopilishidan xabardor va bunga e'tiroz bildirmaydi. Kartani yopish karta hisobini yopishni anglatmaydi. Bunda:
 - 4.6.1. Agar qayta chiqarish paytida Mijozning amaldagi Kartasi virtual bo'lsa, Bank virtual Karta chiqaradi.
 - 4.6.2. Agar qayta chiqarish paytida Mijozning amaldagi Kartasi jismoniy bo'lsa, Bank jismoniy Karta chiqaradi.
 - 4.6.3. Kredit limiti qarzdorlik va mavjud qoldiqni o'z ichiga olgan holda o'zgarishsiz ko'chiriladi.

5. XARAJATLAR, HISOB-KITOBLAR VA TO'LOVLAR

- 5.1. Qarz oluvchi to'lovlarni amalga oshirishi, naqd pul yechib olishi, shuningdek, Karta funksiyasida nazarda tutilgan boshqa tranzaksiyalarni bajarishi mumkin. Limit mablag'lari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan har qanday xarajatlar uchun ishlatilishi mumkin.
- 5.2. Kredit limiti sarflanganda, mavjud limit ishlatilgan qismga kamayadi va to'langan asosiy qarz miqdoriga qayta tiklanadi. Bank Kartaga xizmat ko'rsatuvchi to'lov

- tizimidan tranzaksiyalar (kliring natijalari) tasdiqlangandan keyingi kundun boshlab limitning ishlatilgan qismiga foizlar hisoblaydi.
- 5.3. Agar limit mablagʻlari komissiyani toʻlash, valyuta ayirboshlash farqini qoplash, tarif xizmatlarini toʻlash, uchinchi tomon xizmatlarida takroriy/avtomatik yechib olishlar va/yoki Qarz oluvchi bilan kelishilgan boshqa xarajatlar uchun yetarli boʻlmasa, Bank ushbu xarajatlarni qoplash uchun Qarz oluvchiga texnik overdraft taqdim etishi mumkin. Texnik overdraft summasi asosiy qarzga qoʻshiladi va u bilan birga soʻndiriladi.
 - 5.4. Bank har oyda Koʻchirma sanasida (3.6-band) Qarz oluvchiga oʻtgan Hisobot davrida (1.3-band) amalga oshirilgan operatsiyalar va Bank oldida yuzaga kelgan qarz summasi koʻrsatilgan Koʻchirmani yuboradi.
 - 5.5. Qarz har oyda Soʻndirish sanasi operatsion kunining oxirigacha (Shartnomaning 3.7-bandi), Minimal soʻndirish summasi (Shartnomaning 3.5-bandi) yoki Foizsiz davr qarzining toʻliq summasi miqdorida toʻlovlar bilan soʻndirilishi shart.
 - 5.6. Koʻchirma sanasidan Soʻndirish sanasigacha Qarz oluvchiga Foizsiz davr beriladi (Shartnomaning 3.8-bandi). Foizsiz davrning birinchi kuni soat 00:01 dan oxirgi kuni soat 19:00 gacha Qarz oluvchi hisoblangan foizlarni toʻlamasdan Koʻchirma boʻyicha barcha qarzni mustaqil ravishda muddatidan oldin toʻlashi mumkin, Shartnomaning 5.7-bandida koʻrsatilgan holatlar bundan mustasno.
 - 5.7. Agar:
 - 5.7.1. Hisobot davrida Qarz oluvchi tomonidan naqd pul operatsiyalari (Shartnomaning 1.7-bandi) amalga oshirilgan - bunday naqd pul operatsiyalari uchun hisoblangan foizlar toʻliq hajmda toʻlanishi shart.
 - 5.7.2. Hisobot davrida Qarz oluvchi tomonidan POS-operatsiyalar (Shartnomaning 1.6-bandi) va naqd pul operatsiyalari amalga oshirilgan - Qarz oluvchi POS-operatsiyalarni foizsiz qoplashi uchun hisobot davrining barcha qarzlarni toʻlashi kerak. Agar hisobot davri uchun POS-operatsiyalar va naqd pul operatsiyalari boʻyicha barcha qarzlarni foizsiz davr mobaynida toʻlanmasa, hisobot davri uchun hisoblangan barcha foizlar toʻlanishi lozim boʻladi.
 - 5.7.3. Oʻtgan hisobot davrida Qarz oluvchining minimal toʻlovni toʻlash muddati kechikkan.
 - 5.8. Toʻlov sanasida Qarz oluvchining qarzдорlik miqdoridagi mablagʻlari avtomatik ravishda hisobdan chiqariladi. Agar kartada mablagʻ yetarli boʻlmasa, bankdagi boshqa hisoblardan yoki ilovaga biriktirilgan kartalardan mablagʻlar yechib olinadi.
 - 5.9. Qarzni toʻlashga yoʻnaltirilgan toʻlov bankka pul mablagʻlari kelib tushgandan soʻng, yaʼni toʻlov tizimi yoki toʻlov amalga oshirilgan toʻlov kompaniyasidan toʻlovni kiritish

bo'yicha tranzaksiya (kliring olish va qayta ishlash) tasdiqlangandan so'ng muvaffaqiyatli deb hisoblanadi.

5.10. Qarzni to'lash uchun to'lovlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 5.10.1. Mutanosib ravishda asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik, muddati o'tgan foiz to'lovlari va muddati o'tgan asosiy qarz uchun foiz to'lovlari;
- 5.10.2. Hisobot davri uchun hisoblangan foizlar;
- 5.10.3. Asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- 5.10.4. Bankning qarzni to'lash bilan bog'liq boshqa xarajatlari.

Bunda, mijozda POS-operatsiyalar va naqd pul olish operatsiyalari bo'yicha foizli qarzdorlik va asosiy qarz mavjud bo'lsa, avvalo POS-operatsiyalar bo'yicha qarzdorlik qoplanadi.

5.11. Agar to'lov sanasida Qarz oluvchining hisobvaraqlarida pul mablag'lari bo'lmasa va/yoki to'lov yetarli miqdorda amalga oshirilmagan bo'lsa, Qarz oluvchida muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'ladi va Karta limiti bloklanadi. Bunday holda, muddati o'tgan qarzdorlikka kechiktirilganligi uchun oshirilgan foizlarning barcha summasi kiritiladi (Shartnomaning 3.4.3-bandi).

5.12. Limitni blokdan chiqarish uchun Qarz oluvchi Bank oldidagi barcha muddati o'tgan qarzlarni va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi shart. Qarz to'langandan so'ng, agar Bank Qarz oluvchining to'lov qobiliyati yomonlashganligi sababli Shartnomaning 6.2, 7.1.2 va 9.1-bandlaridagi huquqlaridan foydalanmasa, Qarz oluvchi Limitning barcha mablag'laridan umumiy tartibda foydalanishi mumkin.

5.13. Agar Limit muddatidan 20 (yigirma) oy oldin (Shartnomaning 3.2-bandi) Qarz oluvchida to'lanmagan foydalanilgan limit mavjud bo'lsa, Limit yopiladi va mavjud qarz summasi har oyda qarz summasining yigirmadan bir qismi miqdorida to'lanishi lozim bo'ladi.

6. LIMIT VA KARTA MUDDATI

6.1. Limit Qarz oluvchiga O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasiga muvofiq pensiya yoshiga yetgunga qadar muddatga beriladi. Agar Qarz oluvchi erkaklar uchun 58 (ellik sakkiz) yoshga va ayollar uchun 53 (ellik uch) yoshga to'lgan kuni to'lanmagan limitga ega bo'lmasa, foydalanilmagan limit yopiladi va shartnoma o'z kuchini yo'qotadi.

6.2. Karta 5 (besh) yil muddatga chiqariladi. Karta unda ko'rsatilgan oy va yilning oxirgi kunigacha amal qiladi. Agar Karta muddati tugagandan so'ng Qarz oluvchi Shartnomani bekor qilish to'g'risida ariza bermasa, Bank o'z ixtiyoriga ko'ra Kartani yangi muddatga qayta chiqarishi mumkin.

7. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Bankning huquqlari:

- 7.1.1. Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini o'rganish va majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish.
- 7.1.2. Shartnoma tuzilgunga qadar yoki uning amal qilish muddati davomida o'z xohishiga ko'ra Limitni taqdim etish, blokdan chiqarish va/yoki o'zgartirishni rad etish.
- 7.1.3. Qarz oluvchining muddati o'tgan qarzlarni Bankdagi va/yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa banklaridagi barcha hisobvaraqlari va omonatlaridan akseptsiz tartibda yechib olish.
- 7.1.4. Muddati o'tgan qarzдорlik mavjud bo'lganda va/yoki daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, shuningdek Bank tomonidan huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida Karta, Limitni bloklash va/yoki Karta bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish yoki uni qayta chiqarish.
- 7.1.5. Kredit arizasida ko'rsatilgan aloqa shaxslari, shuningdek Bank ma'lumotlariga ko'ra Qarz oluvchining muddati o'tgan pul majburiyatlarini bajarishiga ko'maklashishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslar bilan qarzni to'lash masalalari bo'yicha qo'ng'iroq qilish va suhbatlashish.
- 7.1.6. Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni kredit byurolariga va kredit axboroti davlat reyestrlariga taqdim etish.
- 7.1.7. Mablag'larni sarflash maqsadi va rejalari haqidagi ma'lumotlarni so'rash, Qarz oluvchi to'g'risidagi shaxsiy, identifikatsiya va boshqa ma'lumotlarni aniqlash.
- 7.1.8. Karta bo'yicha mumkin bo'lgan operatsiyalar to'plamini o'zgartirish, Limit bo'yicha ruxsat etilgan operatsiyalarni o'zgartirish hamda POS va naqd pul operatsiyalari ro'yxatini to'ldirish yoki o'zgartirish.
- 7.1.9. Shartnoma shartlarini va Karta bo'yicha Tariflarni Bosh shartlarda nazarda tutilgan tartibda bir tomonlama o'zgartirish.

7.2. Bankning majburiyatlari:

- 7.2.1. Limit, Karta va Karta bo'yicha bank xizmatining ishlashini ta'minlash.
- 7.2.2. Kelib tushgan pul mablag'larini qarzni to'lashga yo'naltirish.
- 7.2.3. Qarz oluvchiga Limit, Karta va Shartnoma shartlaridan foydalanish bo'yicha maslahat berish.

7.2.4. Ushbu Shartnoma shartlariga Qarz oluvchining huquqlarini cheklashga va/yoki majburiyatlarini oshirishga olib keladigan bir tomonlama o'zgartirishlar kiritishga yo'l qo'ymaslik, Shartnomada bevosita nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

7.3. Qarz oluvchining huquqlari:

7.3.1. Limit mablag'laridan foydalanish va Karta bo'yicha operatsiyalarni o'z xohishiga ko'ra amalga oshirish.

7.3.2. Komissiya to'lovlarsiz qarzni muddatidan oldin to'liq yoki qisman muddatidan oldin to'lash.

7.3.3. Mavjud qarzlarni haqida ma'lumot olish, Limitni sarflash va Kartadan foydalanish bo'yicha maslahat olish uchun Bankka murojaat qilish.

7.3.4. Kartani qayta chiqarish va texnik nosozliklar to'g'risida xabar berish masalalari yuzasidan Bankka murojaat qilish.

7.3.5. Limitni olishdan oldin, shuningdek, uni olgandan so'ng, Bank oldida to'lanmagan qarz bo'lmagan taqdirda, istalgan vaqtda undan voz kechish.

7.4. Qarz oluvchining majburiyatlari:

7.4.1. Qarzni o'z vaqtida to'lash va Karta, Limit hamda boshqa bank xizmatlariga xizmat ko'rsatish uchun komissiya/tarif xarajatlarini to'lash.

7.4.2. Bankning so'roviga ko'ra o'z mulkiy holati va mablag'larni sarflash maqsadlari haqidagi hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish.

7.4.3. O'zining aloqa, pasport ma'lumotlari va yashash manzili o'zgarganligi to'g'risida bunday o'zgarishlar yuz bergan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida bankni xabardor qilish.

7.4.4. PIN-kodlar, SMS kirish kodlari, bir martalik parollar, mobil qurilmaga kirish ruxsatlarini uchinchi shaxslarga bermaslik.

7.4.5. Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, Shartnoma bekor qilingan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida Bank talabiga binoan Kartani Bankka qaytarish.

7.4.6. Bankning rozilgisiz Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazmaslik.

8. JAVOBGARLIK

8.1. Qarz oluvchi Bank oldidagi qarzni o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi uchun javobgardir.

8.2. Qarz oluvchi quyidagilar uchun ham javobgar:

- 8.2.1. Karta orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarning qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va to'g'ri bajarilishi uchun;
- 8.2.2. Kartaning xavfsizligi va buzilishlardan himoyalanganligi uchun;
- 8.2.3. Karta, limit va qarz oluvchining hisobiga kirish imkonini beruvchi ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlash uchun.
- 8.2.4. Qarz oluvchining hisobidan yoki bank aloqa kanallari orqali uning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan to'lov topshiriqlari, roziliklar va avtorizatsiyalar uchun.
- 8.3. Ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan Bank va Qarz oluvchining javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq qo'llaniladi.
- 8.4. Bank ushbu Shartnomani tuzish, Karta va/yoki Limitdan foydalanish, Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida yuzaga kelgan har qanday zarar/xarajatlar uchun Qarz oluvchi oldida javobgar bo'lmaydi.
- 8.5. Bank Asosiy shartlarga muvofiq javobgar hisoblanadi.

9. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

- 9.1. Bank quyidagi hollarda Shartnomani bekor qilish kunida Qarz oluvchini elektron aloqa kanallari yoki llova orqali xabardor qilgan holda Limitni bloklash va Shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega:
 - 9.1.1. Virtual Karta faollashtirilgan paytdan boshlab 48 (qirq sakkiz) soat ichida Qarz oluvchi 4.3.1-bandda ko'rsatilgan tekshiruvdan o'tmagan bo'lsa;
 - 9.1.2. Qarz oluvchi qarzdorlikni to'lashdan va/yoki Bankning boshqa talablarini bajarishdan kechikish yuzaga kelganidan so'ng 1 (bir) ish kunidan ortiq vaqt davomida bosh tortsa;
 - 9.1.3. Qarz oluvchi Bank bilan aloqaga chiqishdan bosh tortsa va talab qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Bank so'ragan hujjatlar/ma'lumotlarni taqdim etmasa;
 - 9.1.4. Qarz oluvchiga nisbatan tergov ishlari olib borilayotgan / jinoiy ish qo'zg'atilgan / ijro ishi yuritilayotgan / qarz oluvchini bankrot deb topish to'g'risida da'vo kiritilgan / qarz oluvchi uchun mavjud limitning yarmidan ortiq miqdorda kreditorlarning talablari mavjud bo'lsa;
 - 9.1.5. Qarz oluvchi Bank yoki uning xodimlariga nisbatan g'ayriqonuniy / firibgarlik / korrupsion / haqoratli harakatlar sodir etgan bo'lsa;
 - 9.1.6. Qarz oluvchiga nisbatan xalqaro yoki mahalliy sanksiyalar qo'llanilgan bo'lsa;
 - 9.1.7. Qarz oluvchi o'zi va moliyaviy ahvoli haqida noto'g'ri/yolg'on ma'lumotlar taqdim etgan bo'lsa.

- 9.2. Qarz oluvchi Shartnomani bekor qilishdan 30 (o‘ttiz) kalendar kun oldin Bankka xabar bergan holda Shartnomani bekor qilishga haqli, agar Shartnomani bekor qilish haqida xabar berilgan kunga qadar Qarz oluvchining Bank oldida to‘lanmagan qarzi bo‘lmasa (xabarnoma kunigacha tuzilgan so‘nggi Ko‘chirmada asosiy qarz va foizlar bo‘yicha qarzdorlik mavjud bo‘lmasa).

10. NIZOLARNI HAL ETISH

- 10.1. Bank va Qarz oluvchi ushbu Shartnomadan yoki u bilan bog‘liq holda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha nizolarni ikki tomonlama muzokaralar yo‘li bilan hal qilishga intiladi. Da‘vo tartibi majburiydir. Da‘voni ko‘rib chiqish muddati - 15 (o‘n besh) kalendar kun.
- 10.2. Agar nizo tinch yo‘l bilan hal etilmasa, ushbu nizo Bankning xohishiga ko‘ra quyidagicha uzil-kesil hal qilinadi:
- 10.2.1. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik sudida Bosh shartlarda nazarda tutilgan tartibda;
- 10.2.2. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda notarial ijro yozuvini olish yo‘li bilan. Qarz notarial ijro yozuvini olish yo‘li bilan undirilganda, Qarz oluvchi notarial ijro yozuvining haqiqiylikini so‘zsiz tan oladi.

11. BOSHQA SHARTLAR

- 11.1. Shartnoma Bosh shartlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Karta, to‘lov va kredit mahsulotlarini taqdim etishning umumiy shartlari hamda Bankning Qarz oluvchi bilan aloqasi masalalari Bosh shartlar bilan tartibga solinadi.
- 11.2. Ushbu Shartnoma va Bosh shartlarda nazarda tutilmagan hollarda Bank va Qarz oluvchi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladi.
- 11.3. Shu bilan Qarz oluvchi Bankka o‘zi haqidagi ma‘lumotlarni kredit byurolaridan va boshqa manbalardan/ma‘lumot yetkazib beruvchilardan so‘rash uchun rozilik beradi;
- 11.4. Shartnoma ushbu Shartnomaning 2.3-bandiga muvofiq qabul qilingan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va uning muddati tugagunga qadar yoki Qarz oluvchi o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunga qadar amal qiladi.
- 11.5. Ushbu Shartnoma shartlarini o‘zgartirishga faqat Tomonlarning o‘zaro roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.
- 11.6. Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar yozma shaklda, shuningdek, Ilovaning funksionalida nazarda tutilgan hollarda, elektron shaklda

rasmiylashtiriladi va Qarz oluvchi tomonidan qabul qilinganidan so'ng (tegishli xabarnomani tasdiqlash orqali) yuridik kuchga ega bo'ladi.